

**JAHON ADABIYOTIDA JEK LONDONNING HIKOYACHILIK
MAKTABI VA HIKOYA JANRIGA QO'SHGAN HISSASI**

Madina Elboyeva

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Erkin tadqiqodchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr dunyo adabiyotining yirik yozuvchisi Jek London ijodi, hikoyanavislik salohiyati va uning jahon hikoyachilik mакtabiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi. Jek London ijod mакtabining, salmoq adabiy an'analarining o'zbek hikoyanavisiлиgi tizimidagi izlari, xayrli nafasi va eng avvalo bu ulkan iste'dod sohibining psixologizmdagi mahorati, bu boradagi iste'dodi qirralariga xos adabiy fazilatlari tilga olinadi.

Kalit so'zlar: hikoyanavislik, obraz, evolutsiya, realistik uslub, monumentallik, psixologizm, adabiy-badiiy uslub.

Abstract: This article talks about the work of Jack London, the great writer of world literature of the 20th century, his story-writing potential and his contribution to the world school of storytelling. The traces of the Jack London school of creativity, salmaq literary traditions in the system of Uzbek storytelling, the auspicious breath and, above all, the mastery of this great talent in psychology, the literary qualities specific to the facets of his talent in this regard, are mentioned.

Key words: narrative, image, evolution, realistic style, monumentality, psychologism, literary and artistic style.

Amerika adabiyoti jahon madaniyati xazinasiga yetkazib bergan taniqli ijodkorlar safida atoqli so'z san'atkori – romannavis, qissanavis va hikoyanavis Jek Londonning munosib mavqeい mavjud. J.London, eng avvalo, o'z vatandoshlari Washington Irving, Mark Tven, Edgar Allan Po, Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey, Jon Steynbek, O.Genri kabi hikoya janri ustasi sifatida dong taratdi. Yevropa va AQSH adabiy-madaniy olamida J.London ijodiy, hikoyanavislik salohiyatini Chexov, Merime, Tolstoy, Turgenev, Franko, Gorkiy, Sveyg singari hikoyanavis adiblar bilan bir qatorda ta'riflashadi. Taniqli rus adabiyotshunosi Ya.N.Zasurskiy shunday yozadi: "Jek London XX asr dunyo adabiyotining yirik yozuvchilaridan biri. U o'z romanlari, hikoyalari bilan realistik nasr rivojiga munosib hissa qo'shdi. Adibning o'qimishli asarlari markazida o'ziga ishongan, kuchli, o'z kuch-quvvatiga tayangan mardona kelbatli kishilar obrazi turadi"[Zasurskiy Ya.N.1984;76,504].

Realistik nasriy asarlar ustasi bo'lgan "Jek London" nomi bilan tanilgan adibning haqiqiy ismi sharifi Djon Griffit London bo'lib, u 1886 yil 14 yanvarda AQSH Kaliforniya shtatidagi San-Fransisko shahrida tug'ilgan. Djon Griffitning

RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

haqiqiy otasi astrologiya professor U.X.Chani bo‘lib, u bo‘lg‘usi adibning onasi Flora Uellmanni tashlab ketgandan so‘ng, Flora Djon London ismli fermerga turmushga chiqadi. Djon London bo‘lg‘usi adibni farzandlikka qabul qiladi va bu bolaga o‘z familiyasini beradi. Adibning qizi o‘z xotiralarida yozishicha, Djon London yosh Jekni o‘z o‘g‘li sifatida tarbiyalab, uning haqiqiy otasi o‘rnini bosishga harakat qilgan Jek ham uni butun umr qattiq hurmat qilgan. Jek Londonning taqdiridagi o‘gay ota masalasi, o‘gay bo‘lsa-da, Jekni o‘z tug‘ishgan farzandi sifatida ardoqlab, tarbiyalab, oqibatli inson sifatida taniladi. Ulg‘aygach, ko‘ngli tortib, otasi Chaniga xat yozadi, ammo Chani o‘z o‘g‘li Jekni rad qiladi, Ammo, o‘g‘lining taniqli ijodkor sifatida tanilgan chog‘i pushaymon bo‘lgan. Shu tariqa dunyo kitobxoni sevib mutolaa qiladigan so‘z san’atkori Jek London juda kambag‘allikda ulg‘ayib-o‘sadi. Kitoblar Jek London dunyoqarashining shakllanishiga shak-shubhasiz katta ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich maktabni tugatgach, bo‘lg‘usi adib ish soati 12-14 soatga cho‘ziladigan konserva zavodiga ishga kirib ishlashga majbur bo‘ladi.

Bu kabi tushkun hayot, tinimsiz yetar-yetishmovchilik azobi J.Londonning keyinchalik yaratgan hikoyalarida, ayniqsa hali bevosita o‘zining shaxsiy hayot yo‘llari muhim asos bo‘lib xizmat qilgan. “Kish haqida qissa” nomli hikoyasida Jek London uzoq shimol o‘lkasida, Muz dengizi sohilida yashagan Kish degan bola obrazini yaratgan. Bu asardagi Kishning qashshoqlikda yashashi, otasining bevaqt vafot etib, yanada tushkun va g‘arib holga kelib qolgan ona-bola hayotining haqqoniy tasvirlanishi uchun yozuvchining o‘zi bolaligida boshdan o‘tkazgan tushkun hayot yo‘llari adabiy xamirturush bo‘lib xizmat qilganligi sezilarlidir.

Tabiatiga ko‘ra xayolchan-romantik bo‘lgan Jek birmuncha muddat brokon’er (o‘g‘ri ovchi) sifatida baliq ovi bilan ham shug‘ullanadi. U yoshligidan xuddi sevimli obrazi Martin singari kuchli, qo‘rqmas va irodali yigit bo‘lib shakllangan. Adibning biograflari Jekning shunday botirlik xususiyatlari egasi sifatida shakllanishida, ayanchli kambag‘allikni, uzlucksiz yetar-yetmaslik hayotini boshdan o‘tkazishida, sabr va chidam sohibi bo‘lib shakllanishida asos bo‘lib xizmat qilganligini qayd qilishgan.

Jek London yashagan davrda dunyoning boshqa mamlakatlarida bo‘lgani kabi Amerikada ham kapitalizm o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan, ijtimoiy tengsizlik sababli siyosiy kurashlar avj olgan, kommunistik g‘oyalar keng yoyilgan edi. 1893 yilda ilk hikoyasi – “Yaponiya sohillaridagi to‘fon”ni mahalliy “Koll” gazetasida e’lon qilgan adib siyosiy faoliyatdan chetda qolmadidi. XIX asrning 90-yillaridan e’tiboran sotsial-ishchilar partiyasining vakili sifatida

RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

mitinglarda ishtirok etdi, ishchilar harakati to‘g‘risida maqolalar ye’lon qildi, chiqishlar qiladi. Keyinchalik adibning siyosiy chiqish va maqolalari “Sinflar kurashi” (“The War of the Classes”, 1905) hamda “Revolyutsiya” (“Revolution and Other Essays”, 1910) to‘plamlarigdan joy oldi. Jek London ayovsiz ekspluatatsiya zulmi ostida ezilganlar sinfining vakili edi, shu tufayli ham u jamiyatni tubdan o‘zgartirish tarafdorlari safida edi; binobarin, adib 1905 yildagi rus revolyutsiyasini ham quvonch va umid bilan qarshi oldi. 1900 yillardan “Bo‘ri bolasi” (“The Son of the Wolf”) kitobi bilan yozuvchi sifatida tanilgan Jek London rus revolyutsiyasi ta’sirida “Revolyutsiya” essesi va “Temir tovon” (“The Iron Heel”, 1908) romanlarini yozdi. Adib mazkur romanida shu kunga qadar deyarli qo‘l urilmagan o‘tkir ijtimoiy muammolarni fosh qildi. romanda ijtimoiy tengsizlik, ezilgan sinfning o‘z haq-huquqi uchun kurashi kabi o‘z davrining dolzarb masalalari badiiy obrazlarda ifoda etildi.

Jek Londonning yuksak badiiy haqqoniylit bilan yaratgan asarlarida, jumladan, hikoyalarida, bunday voqelikni real aks ettirdi. To‘g‘ri, J.Londonning “Temir tovon”, “Martin Iden”, “Uch qalb” kabi romanlari ham, necha qissalari ham ancha o‘qimishli, o‘z davrining dolzarb muammolarini talqin etganligi bilan e’tiborga loyiq. Ammo, Jek Londonning shon-shuhrat, avvalo, uning teran g‘oyaviy-badiiy pafos bilan yaratilgan hikoya janridagi namunalariga oid bo‘lib hisoblanadi.

J.Londonni kish hayoti bilan bog‘liq tabiiy borliq, ekzotika, hamma vaqt olis mamlakatlar, yovvoyilarcha kechiriladigan erkin hayot o‘ziga chorlab turgan. Jek birmuncha muddat matros bo‘lib dengizda suzadi. Keyin esa kanop fabrikasiga ishga kiradi; xuddi shu paytda uning adabiy faoliyati boshlanadi. U “Koll” gazetasi e’lon qilgan tanlovda qatnashib, kichik hikoyasi ma’qullanadi va g‘olib bo‘ladi. Bu esa uni chinakamiga adabiyot bilan shug‘ullanishiga, badiiy ijod olamiga dadil qadam qo‘yishga yuksak darajada ruhlantiradi. Shunday qilib, Amerika adabiyotida Mark Tven, Garriyet Bicher-Stou, Edgar Allan Po kabi kambag‘alparvar ruhdagi adiblar safi Jek London kabi chinakam xalqparvar, ma’nun-ruhan bechora va ezilgan kishilar tarafdori va rahnamosi bo‘lgan iste’dod sohibi qo‘shilganligi shinavandalar e’tiborini torta boshlaydi.

“Men oddiygina ishchi oilasida tug‘ilganman. Juda yosh kezlarimizdanoq o‘z xayolot olamimda kuchli xohish-istiklar, shu mavjud hayotga bo‘lgan beedad zavqu shavq hamda qo‘l yetmas orzular osmonini kashf qildim. Ha, bu yorqin niyatlarim mening bola boshim uchun nechog‘lik mahol bo‘lishiga ham rozi bo‘lgan holda ularga butun qalbimni fido qildim.” [London J.2014;14]

RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Bu aziyatli satrlar Jek Londonning umri so‘ngida yozgan “Men anglagan hayot” nomli iqrornomasiga tegishli qalb nidosi, balki, adib bosib o‘tgan azobli-fojiali taqdir” mazmuni hisoblanadi. Asarlarida qanchalik haqiqatgo‘y bo‘lgan adib, kambag‘al-bechoralar hayotini qanchalik ezilib tasvirlagani barobarida bu asli o‘z hayot yo‘llari, achchiq taqdir in’omi ekanligini bayon qiladi: “Holbuki, atrofimdagи muhit g‘oyatda achinarli, orzumand ko‘zlarimni faqat yuksakka tikardim, o‘sha telegramdagi moddiy turmush lavhalarini nazарим hech ilg‘amasdi. Tan olishim kerakki, jamiyatdagi mening o‘rnim ancha quyida edi”[London J.2014;14].

J.London asarlarida obrazlar psixologik holatlarining mukammal tasvirlanishi uning dunyoda mashhur psixolog-olimlar asarlari bilan alohida qiziqqanligi sharofatidan ekanligi ma’lumdir..

Jek Londonning ulkan romannavis va hikoyanavis yozuvchi sifatida shakllanishida albatta, o‘zi mansub Amerika realistik adabiyoti namoyandalarining tajribalari, hukmron ijtimoiy muhit adolatsizliklari, notenglik alamlarini chekkan bechora kishilar qismatiga achinish muhim omil bo‘ldi.

Jek London hikoyachilik ko‘lami quyidagicha yo‘nalishlarda e’tiborni tortadi:

- inson uchun eng ulkan boylik, ilohiy mujda bo‘lmish uning erki, haq-huquqi uchun kuyunchaklik, uni jon-jahdi bilan himoya qilish g‘oyasi;
- yosh kuchlarning shakllanish, hayot va oila butligi uchun muttasil qurilish talqinlari;
- nafs ovvorligidan tiila bilish, oltin-javohirlar jazavasiga berilmaslik axloqi;
- tasvirda monumentallik, hayotni, vogelikni, har bir obraz faoliyatini mukammal talqin ettish; realistik uslub jozibadorligiga erishish;
- hayot va obraz talqinida psixologik mahorat uquvini va mahoratini egallay olishi; binobarin, Jek London adabiy-badiiy uslubi bag‘rida psixologik talqinning portret, peyzaj, nutq, muallif nutqi, ichki iztirob, murojaat, xayol, dailog, monolog, murojaat, tush, maqsad, ishq, nafs, niyat, dardkashlik, umid, iltijo, iztirob kabi yana bir qator turlarini kuzatish mumkin.
- makon va zamon alohiligi maqomida yuqoridagi adabiy tajriba majmuuning muhim sohalari o‘zbek hikoyalari tarkibida ham namoyon bo‘ladi; bunda psixologizmdan mahoratlari keng miqyosda kuzatish mumkin.

Jek London asarlarining mashhurligi, ularning jozibadorligini ta’minlagan omillardan yetakchisi – bu inson obraz-ziynatining psixologik jihatdan mukammal talqin etilganligi bilan izohlanadi. J.London ijodiy matabining jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati ham avvalo shu bilan belgilanadi.

RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Atoqli Amerika yozuvchisi Jek London hikoyachilik maktabi o‘zining erk va insoniy ma’naviyat g‘oyalari, psixologizm bobidagi yuksak mahoratiga oid mushtaraklik o‘zbek hikoyalarida, jumladan, Murod Muhammad Do‘s’t, Xayriddin Sulton, Olim Otaxon asarlarida namoyon bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. M.Elboyeva. Development Of Realistic Story Genre in 20th- Century Us and Uzbek Literature.Eurasian journal of Learning and academic teaching.2023.August. p.11
2. Засурский Я.Н. Американская литература XX века. Издание второе, исправленное и дополненное. Издательство Московского университета, 1984, стр.76. (стр.504).
3. London J. Men anglagan hayot. “Kitob dunyosi”, 2014 yil 23 iyul, №14.
4. Азизов К., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи (XVIII-XX асрлар). Т., “Ўқитувчи”, 1987, -334 б.
5. Абдураҳмонова М. Мастерство психологического изображения в творчестве Абдуллы Кадыри: Дисс.канд.филол.наук, Т.; 1977. С.184.